


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**60110300-Maxsus pedagogika
bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining**

MALAKA TALABI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil «25» 06 dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda
Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi.

Mazkur malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2. Kasbiy faoliyatning tavsifi	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari	6
1.2.3. Kasbiy faoliyatning turlari	6
1.2.4. Kasbiy vazifalar	7
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	11
3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	12
4. Fanlar katalogining tuzilishi	13
Bibliografik ma’lumotlar.....	16
Kelishuv varag‘i	17

1. Umumiy tavsifi

60110300-Maxsus pedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi 60110300-Maxsus pedagogika ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalishlari bo'yicha malaka talabi, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:

60110300-Maxsus pedagogika: logopediya

umumiy o'rta ta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rinlarda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari) maxsus pedagog (logoped) lavozimida o'rnatilgan tartibda pedagogik faoliyat olib borish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalariga (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rinlarda - inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan ta'lim muassasalari) maxsus (yordamchi) pedagog xodim) sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

sog'liqni saqlash tizimiga qarashli tibbiyot tashkilotlarida va unga tenglashtirilgan lavozimlarda korreksion-pedagogik faoliyat olib borish;

tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan ta'lim muassasalari direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

60110300-Maxsus pedagogika: surdopedagogika

ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internat o'qituvchisi, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus pedagog (o'qituvchi-surdopedagog) kasb standartiga muvofiq surdopedagog o'qituvchi va tarbiyachi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

o'rta maxsus va professional ta'limda surdopedagog o'qituvchi sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalariga (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rinlarda - inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan ta'lim muassasalari) maxsus (yordamchi) pedagog xodim) sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

60110300-Maxsus pedagogika: oligofrenopedagogika

ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlari o'qituvchisi, oligofrenopedagog, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maxsus pedagog (o'qituvchi-oligofrenopedagog) kasb standartiga muvofiq oligofrenopedagog o'qituvchi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

maxsus maktab va maktab internatlar; ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida; "Muruvvat" uylari; "Mehribonlik" uylari; sog'liqni saqlash vazirligi tasarrufidagi muassasalar, nodavlat tashkilotlarida maxsus pedagog, tarbiyachi lavozimida ;

inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan umumta'lim muassasalariga (maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktablar, maktab-internatlar) (keyingi o'rinlarda - inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilgan ta'lim muassasalari) maxsus (yordamchi) pedagog xodim) sifatida pedagogik faoliyat olib borish;

o'rta maxsus professional ta'lim muassasalarida o'qituvchi, oligofrenopedagog, tarbiyachi;

maxsus maktab va maktab internatlar; ixtisoslashtirilgan ko'p tarmoqli hamda qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

maxsus maktab va maktab internatlar, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida laborant, kabinet mudiri, tyutor sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

60110300-Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati

eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim oladigan yoki faoliyat yuritadigan muassasa, tashkilotlarda surdotarjimon;

eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarga hizmat ko'rsatuvchi muassasa, tashkilotlarda surdotarjimon;

qo'shimcha ta'lim muassasalarida surdotarjimon;

yakka tadbirkorlik va boshqa tashkilotlarda surdotarjimon sifatida faoliyat olib borish.

1.2.2. Kasbiy faoliyatning obyektlari:

60110300-Maxsus pedagogika: logopediya, surdopedagogika, oligofrenopedagogika

umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;

maktabgacha va maktab ta'limi, sog'liqni saqlash vazirliklari tizimidagi idoralarda;

ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari va qo'shma ta'lim tashkilotlarida;

alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida;

tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida;

davlat boshqaruv organlari, "Respublika Ta'lim Markazi", "Respublika Tashxis Markazi", "Inklyuziv ta'lim laboratoriyasi", inklyuziv ta'lim joriy etilgan davlat va nodavlat muassasalarida;

"Muruvvat" uylari;

"Mehribonlik" uylari;

maktabdan tashqari tashkilotlarda.

60110300-Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati

qo'shimcha ta'lim muassasalarida;

xizmat ko'rsatuvchi muassasalar, davlat va nodavlat tashkilotlar;

eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ta'lim oladigan yoki faoliyat yuritadigan muassasa, tashkilotlarda, eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarga hizmat ko'rsatuvchi muassasa, tashkilotlarda, gid hamrohligida surdotarjimon, qo'shimcha ta'lim muassasalarida surdotarjimonlik faoliyati bilan ishlash huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatning turlari:

60110300-Maxsus pedagogika: logopediya, surdopedagogika, oligofrenopedagogika

- *pedagogik;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

60110300-Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ma'naviy-ma'rifiy;*
- *tashkiliy-boshqaruv.*

1.2.4. Kasbiy vazifalari

60110300-Maxsus pedagogika: ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

ta'lim jarayonini rejalashtirish: Davlat malaka talablari va O'D larining maqsadlariga muvofiq ish rejalarini ishlab chiqish, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, dars-mashg'ulotlarning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars-mashg'ulot rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars-mashg'ulot shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallarni tayyorlash va saralash;

ta'lim samaradorligini ta'minlash: dars-mashg'ulot maqsadlariga ko'ra vazifalarni belgilash, mashg'ulot mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, dars-mashg'ulotda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra dars-mashg'ulotni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, ta'lim oluvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ta'lim oluvchilarga differensial yordam berish, ta'lim jarayonida nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlash imkoniyatlarini yaratish, dars-mashg'ulotlarda motivatsiyaga erishish, guruhda samarali muloqotga erishish;

korreksion-pedagogik ish natijalarini tahlil qilish, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish: maxsus diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, korreksion-pedagogik ish natijalarini monitoring qilish, dars-mashg'ulot rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, mavjud muammolarni aniqlay olishi va taxlil qilish, ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish;

tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish: tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulotlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda tarbiyalanuvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq ta'lim oluvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muxitni yarata olish, ta'lim oluvchilarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash: Ta'lim oluvchilar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, ta'lim oluvchilarga kun tartibi davomida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror

chiqara olishi, ta'lim oluvchilar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish: muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro mashg'ulotlarda qatnashish, mashg'ulotlarni tahlil qilish, ochiq mashg'ulotlar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish: ta'lim oluvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) korreksion-logopedik ish jarayoniga jalb qilish, ta'lim oluvchilarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim oluvchilarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va ta'lim oluvchilarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari bilan hamkorlik qilish;

60110300-Maxsus pedagogika: oligofrenopedagika

Korreksion-pedagogik:

intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

inklyuziv ta'limni amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasalarida korreksion-pedagogik faoliyatni amalga oshirishni bilishi;

inklyuziv ta'limga jalb etilgan intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ta'limiy, tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borishi;

intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishning maxsus metodikalarini egallagan bo'lishi;

intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan psixokorreksion ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarni bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;

aqli zaif, psixik rivojlanishi kechikkan bolalarda nutqning fonetiko-fonematik, leksik-grammatik tomonidagi, o'qish va yozishdagi nuqsonlarni, duduqlanish va nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish yuzasidan ishlarni olib borishni bilishi;

rivojlanishida og'ir va ko'p nuqsonga ega bo'lgan bolalar uchun ularning psixik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks baholash asosida yakka rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni bilishi;

maktabgacha va maktab yoshidagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitishda o'yin va interfaol texnologiyalarni qo'llashni bilishi;

tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish agentligi va sog'likni saqlash tizimi tasarrufidagi muassasalarda (ilk yoshdagi bolalar uylari va bolalar "Muruvvat" uylari) korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish uchun sharoit yaratish va bu ishlarni tashkil etishni bilishi;

ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab -internatlarda mehnat ta'limini tashkil etish uchun sharoit yaratish va amalga oshirishni bilishi;

rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida himoya-pedagogik kun tartibini tashkil etishni, korreksion-pedagogik faoliyatni va boshqa ishlarni bolalarning psixik va jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olib sog'lig'ini mustahkamlashga qaratgan holda tashkil etishni bilishi;

murakkab pedagogik vaziyatlar yuzaga kelganda ularni hal etish bo'yicha ijodiy potensialga ega bo'lishi, korreksion-pedagogik jarayonlarni, ta'limning mazmuni va metodlarini bolaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtira olishi;

tabiiy ofatlar va kutilmagan vaziyatlarda bolalar va o'quvchilarning hatti-harakatlarini to'g'ri tashkil etishni bilishi kerak.

Diagnostik-maslahat:

turli yosh bosqichlari va bolalar rivojlanishidagi turli xil nuqsonlarni psixologik-pedagogik va logopedik tashxis qilishning standartlashgan metodlarini, bolalarni tekshirishni to'g'ri tashkil qilishni va tekshirishdan olingan natijalarni yakka korreksion-rivojlantiruvchi dastur tuzish hamda bolani tegishli ta'lim muassasasiga yo'naltirish maqsadida taxlil qilishni bilishi;

korreksion-rivojlantiruvchi ta'sirni samaraliligini baholash maqsadida dinamik kuzatuvni amalga oshirishni bilishi;

tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya faoliyatini tashkil etishni bilishi;

ota-onalarga bolada mavjud nuqsonlarning xususiyatlari va uning rivojlanish istiqboli haqidagi ma'lumotlar berishni, ularni korreksion-pedagogik faoliyat jarayoniga teng huquqli sheriklar sifatida jalb eta olishi;

ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tomondan erta tashxis qilishni, ular uchun yakka korreksion-rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqishni bilishi kerak.

Kommunikativ:

psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslar va ularning oilasiga empatik va insonparvar munosabatda bo'lishi;

tashviqot ishlarini olib borishni, o'quv-metodik ishlar bo'yicha munoraza yuritishni, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning huquqlarini himoya qilishni bilishi;

hamkasabalari va boshqa mutaxassislar bilan muloqot qilishni, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani o'qitish, tarbiyalash va rehabilitatsiya qilish bo'yicha jamoaning faol a'zosi sifatidagi maxsus pedagog (o'qituvchi-oligofrenopedagog)

uchun zarur bo'lgan malakalarni egallagan bo'lishi kerak.

60110300-Maxsus pedagogika: surdotarjimonlik faoliyati

eshitishda nuqsoni bo'lgan va eshitadigan shaxslar o'rtasidagi nutqiy muloqotni amalga oshira olish, og'zaki nutqdan imo-ishoraga va imo-ishoradan og'zaki nutqqa sinxron yoki ketma-ket tarjima qilishni amalga oshirish, tarjima qilinayotgan materialni leksik, stilistik, grammatik, hissiy va mantiqiy mazmunini aniqligini ta'minlash;

mazmunidan qat'iy nazar ishtirok etgan muzokaralar jarayonini konfidensialligini ta'minlash, ijtimoiy-madaniy vaziyatlarni inobatga olgan holda tarjima turlari, usullari va texnologiyalarini qo'llash;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

maxsus pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

maxsus pedagogika fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiq etish;

maxsus pedagogika ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

maxsus pedagogikaga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

ta'lim oluvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

globallashtirish sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va me'yorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli, izchil va aniq bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash hamda ifodalay olishi;

turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydalanish qobiliyatiga egalik; ota-onalar(yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan munosabatga kirisha olish;

ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish hamda kasbiy faoliyati uchun yetarli darajada undan foydalana olishi;

olingan kasbiy tajribani tanqidiy ko'rib chiqish, o'z-o'zini rivojlantirish,

malaka oshirish va o'z kasbiy faoliyatining turi hamda xarakteristikasini o'zgartirishga qodir bo'lishi;

ish joyidagi potensial xavflarni yaxshi tushunishi va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini ola bilishi hamda texnologiya darslarida texnika xavfsizligini ta'minlash va laboratoriya tajribalarini xavfsiz o'tkazishi;

shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi.

ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

ta'lim jarayoni sub'ektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariya va amaliyot uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik.

turli yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishi, muloqoti, faoliyatini tashxis etish metodlaridan foydalanish qobiliyatiga egalik;

kasbiy sohadagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda samarali texnologiyalarni qo'llashga;

intellektual faoliyatning tahlil, tarkib va boshqa metodlarini qo'llagan holda muammoni tadqiq etishga;

kasbiy vazifalarni hal etishda turdosh sohaga doir bilimlarni integratsiyalashga;

pedagogik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish;

inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj o'quvchilar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

alohida yordamga muhtoj bolalar bilan faoliyatda shaxsga yo'naltirilgan va individual-differensirlashgan yondoshuv asosida samarali korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni tanlash va amalga oshirishga;

ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8- semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kuni nazariy va amaliy ta'lim, 2 kuni umumiy va o'rta ta'lim tashkilotlari, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat va nodavlat hamda qo'shma ta'lim muassasalarida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. o'quv-tanishuv amaliyotlari
2. malakaviy amaliyoti
3. pedagogik amaliyot

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklama hajmi (soatda)	Umumiy yuklama hajmi (kredit)	Semestri
1.00		Majburiy fanlar*			
1.01	PSY11210	Umumiy psixologiya	300	10	1,2
1.02	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi (Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi)	120	4	2
1.03	MSVAX1105	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	150	5	1
1.03	MSVAX1205	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati (Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi)	150	5	2
1.04	O'RT1206	Amaliy o'zbek (rus) tili. Davlat tilida ish yuritish	180	6	2
1.04	O'RT1106	Amaliy o'zbek (rus) tili. Davlat tilida ish yuritish (Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi)	180	6	1
1.05	FAL1104	Falsafa	120	4	1
1.05	FAL1204	Falsafa (Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi)	120	4	2
1.06	PED13408	Umumiy pedagogika	240	8	3,4
1.07	DIN1404	Dinshunoslik (Surdopedagogika va Oligofrenopedagogika ta'lim yo'nalishlari)	120	4	4
1.07	DIN1304	Dinshunoslik (Surdotarjimonlik va Logopediya ta'lim yo'nalishlari)	120	4	3
1.08	UTTVZY1805	Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar	150	5	8
1.01	UTTVZY1705	Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar (Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi)	150	5	7
		Jami	1380	46	
		Logopediya ta'lim yo'nalishi			
1.09	MK1105	Mutaxassislikka kirish	150	5	1
1.10	NOR1206	Nutqning ontogenezda rivojlanishi	180	6	2
1.11	OAVF1206	Odam anatomiyasi va fiziologiyasi	180	6	2
1.12	MaxPedKA11210	Maxsus pedagogikaning klinik asoslari	300	10	1,2
1.13	Logo1406	Logopediya I	180	6	4
1.14	MaxPedMPs13411	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	330	11	3,4
1.15	InkT.GP13408	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	240	8	3,4
1.16	Logo15612	Logopediya II	360	12	5,6
1.17	LogPPKM1604	Logopsixologiya va psixologik korreksiya metodlari	120	4	6
1.18	PedPsixD1506	Pedagogik-psixologik diagnostika	180	6	5

300

1.19	RNBBLR1606	Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning logopedik reabilitatsiyasi	180	6	6
1.20	LogoTex1505	Logopedik texnologiya I	150	5	5
1.21	Logo1704	Logopediya III	120	4	7
1.22	LogoTex1704	Logopedik texnologiya II	120	4	7
1.23	LMRTE1705	Logopedik mashg'ulotlarni rejalashtirish va tashkil etish	150	5	7
		Jami:	2940	98	
		Tanlov fanlari	1800	60	3-8
		<i>Tanlov fanlari</i>	1800	60	3-8
Kvalifikatsiya		Maxsus pedagog (o'qituvchi-logoped)			
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2-8
		JAMI	7200	240	
Surdopedagogika ta'lim yo'nalishi					
1.09	MutK1105	Mutaxassislikka kirish	150	5	1
1.10	TSO'T1206	Tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi	180	6	2
1.11	AOG1206	Anatomiya. Odam genetikasi	180	6	2
1.12	MPKA11210	Maxsus pedagogikaning klinik asoslari	300	10	1,2
1.13	InkGos1304	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	3
1.14	MaxPedMPs1304	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	120	4	3
1.15	SP1404	Surdopedagogika	120	4	4
1.16	SPs1404	Surdopsixologiya	120	4	4
1.17	DIIN13409	Daktilologiya va imo-ishora nutqi	270	9	3,4
1.18	OO'T15608	Ona tili o'qitish texnologiyasi	240	8	5,6
1.19	MO'T15608	Matematika o'qitish texnologiyasi	240	8	5,6
1.20	SP15609	Surdotarjimonlik praktikumi	270	9	5,6
1.21	PPD1604	Psixologik pedagogik diagnostika	120	4	6
1.22	KIBR1706	Koxlear implantli bolalar reabilitatsiyasi	180	6	7
1.23	MSTTMM1705	Maktabgacha surdopedagogika va ta'lim-tarbiya maxsus metodikasi	150	5	7
1.24	TMSH1706	Talaffuz malakalarini shakllantirish	180	6	7
		Jami:	2940	98	
2.00.		Tanlov fanlari	1800	60	3-8
2.00.		<i>Tanlov fanlari</i>	1800	60	3-8
Kvalifikatsiya		Maxsus pedagog (o'qituvchi-surdopedagog)			
		Jami:	1800	60	
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2-8
		Jami	7200	240	
Oligofrenopedagogika ta'lim yo'nalishi					
1.09	OAVF1205	Odam anatomiyasi va fiziologiyasi	180	6	2
1.10	MaxPedKA11210	Maxsus pedagogikaning klinik asoslari	300	10	1,2
1.11	InkT.GP1304	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	3
1.12	MutK1105	Mutaxassislikka kirish	150	5	1
1.13	TO'MM1207	Texnologiyani o'qitish maxsus	180	6	2

		metodikasi			
1.14	OligoPed1404	Oligofrenopedagogika	120	4	4
1.15	MaxPedMPs 13409	Maxsus pedagogika va maxsus psixologiya	270	9	3,4
1.16	OligoPsix1304	Oligofrenopsixologiya	120	4	3
1.17	Logo1404	Logopediya	120	4	4
1.18	OTO'MM15610	Ona tili o'qitish maxsus metodikasi	300	10	5,6
1.19	MO'MM15610	Matematika o'qitish maxsus metodikasi	300	10	5,6
1.20	PPDM1505	Pedagogik-psixologik diagnostika	150	5	5
1.21	XusMet17810	Xususiy metodikalar	300	10	7,8
1.22	MakOMTMM1 706	Maktabgacha oligofrenopedagogika va maktabgacha tarbiya maxsus metodikasi	180	6	7
1.23	ErTA1705	Erta tashxis va abilitatsiya	150	5	7
		Jami:	2940	98	
2.00.		Tanlov blok	1800	60	3-8
2.00.		Tanlov blok	1800	60	3-8
Kvalifikatsiya		Maxsus pedagog (o'qituvchi-oligofrenopedagog)			
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2-8
		Jami:	7200	240	
Surdotarjimonlik ta'lim yo'nalishi					
1.09	MutK1106	Mutaxassislikka kirish	180	6	1
1.10	SSA1205	Surdopedagogika va surdopsixologiya asoslari	150	5	2
1.11	OAF1106	Odam anatomiyasi va fiziologiyasi	180	6	1
1.12	O'IIT11210	O'zbek imo-ishora tili	300	10	1,2
1.13	InkT.GP1404	Inklyuziv ta'lim. Gospital pedagogika	120	4	4
1.14	JT1404	Jahon tarixi	120	4	4
1.15	DIIO'M13408	Daktilologiya va imo-ishoraga o'rgatish metodikasi	240	8	3,4
1.16	MaxPedKA134 09	Maxsus pedagogikaning klinik asoslari	270	9	3,4
1.17	FIIQ15608	Frazeologiyada imo-ishorani qo'llash	240	8	5,6
1.18	SP15609	Surdotarjimonlik praktikumi	270	9	5,6
1.19	BFTS15608	Boshqa faoliyat turlarida surdotarjimonlik	240	8	5,6
1.20	MTHA1604	Maxsus ta'limning huquqiy asoslari	120	4	6
1.21	SSNAA1706	Sinxron surdotarjimonlik nazariy va amaliy asoslari	180	6	7
1.22	SS1805	Surdotarjima stilistikasi	150	5	8
1.23	ITT1706	Inklyuziv ta'lim texnologiyalari	180	6	7
		Jami:	2940	98	
		Tanlov fanlar	1800	60	3-8
		Tanlov fanlar	1800	60	3-8
Kvalifikatsiya		Surdotarjimon			
		Jami	6120	204	
		Malakaviy amaliyot	1080	36	2-8
		Jami	7200	240	

*- Mazkur ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalarining tanlov fanlari qismiga "Kasbiy sohada xorijiy tillar (ECTS)" fani majburiy tarzda kiritiladi.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 371.927

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv reja, kompetensiya, modul, kasbiy faoliyat sohasi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat turi, amaliyot, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, korreksiya, nutq buzilishlari, kompensatsiya, rehabilitatsiya, abilitatsiya, imkoniyatlari cheklangan bolalar, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, pedagog, maxsus pedagog (o'qituvchi-surdopedagog), surdopedagogika, surdopsixologiya, inklyuziv ta'lim, imo-ishora nutqi segmentatsiyasi, ona tili o'qitish texnologiyasi, matematika o'qitish texnologiyasi, majburiy fanlar, tanlov fanlari, 4+2 amaliyot, aqli zaiflik, korreksiya, nutq buzilishlari, aqli zaiflik darajalari, intellektual nuqsonlar, ruxiy rivojlanishning sustlashishi, og'zaki va yozma nutq buzilishlari, surdotarjimon.


Kelishuv varag'i

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**


ISHLAB CHIQILGAN:
Nizomiy nomidagi Toshket davlat pedagogika universiteti

Rektor  **A. Kirgizbayev**

2024-yil « 20 » 06
M.O'.





KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari markazi
Direktor  **M. Boltabayev**
2024-yil « 25 » 06



M.O'.

O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi ta'lim
vazirligi huzuridagi
Respublika ta'lim markazi
Direktor  **Sh. Xudaykulov**
2024-yil « 20 » 06




M.O'.

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Rektor  **Sh. Sharipov**

2024-yil « 20 » 06



M.O'.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Rektor  **G. Muxamedov**

2024-yil « 20 » 06



M.O'.